

# MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA TA'SIRI

**Raxmatov Elyor Abduqahhor o'g'li,**

JDPI Musiqa madaniyati fakulteti

Musiqa ta'limi yo'nalishi 301-guruh talabasi

**Munojat Axrorova,**

Ilmiy rahbar: JDPI Musiqa madaniyati fakulteti

Musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yurtimizda madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'siri, yaratilayotgan shart-sharoitlar, ta'lim-tarbiya jarayonida musiqa san'atining o'rni va ahamiyati shuningdek mumtoz musiqamiz rivoji xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy, musiqa, mumtoz, cholg'u, maqom, ansambl.

Bugungi kunda yurtimizda madaniyat va san'at sohasiga qaratilgan e'tibor yanada ortmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati va madaniyatini oshirish, milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mumtoz musiqamizga bo'lgan qiziqishlari va bilimlarini orttirish, kelajak avlodga milliy musiqiy meroslarimizni sifatli darajada yetkazish hisoblanadi.

Yoshlarimiz mumtoz ashulalarimizni deyarli eshitmay qo'yishdi. Ularning o'rnini osonlikcha zamonaviy janrdagi mantiqsiz qo'shiqlar egallab bormoqda. Natijada yoshlar bilan bog'liq turli ko'ngilni xira qiluvchi xodisalar, ma'naviyatsizlik, axloqsizlik, madaniyatsizlik hollari ildiz otib bormoqda.

Musiqa ko'pincha inson kayfiyatini o'zida aks ettiradi. Shu asnoda, misol uchun, avtomobil boshqarib ketayotgan kishiga eng yaxshi musiqa bo'lib, elektron musiqa hisoblanadi, homilador ayollarga esa olimlar klassik, mumtoz musiqani eshitishni tavsiya qilishadi, axir aynan shunaqa musiqa dunyoga keladigan bolakayning kelajakdagi musiqiy didini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev Prezident lavozimini egallagan ilk kunlardan boshlab, mamlakatda madaniyat va san'at sohasini inqirozdan olib chiqish masalasiga jiddiy e'tibor qaratmoqda.

2020-yil 27-iyun kuni prezident Shavkat Mirziyoev Namangan viloyati faollari bilan yig'ilish o'tkazgan edi. Prezident Shavkat Mirziyoev Namangandagi nutqida davom etarkan, barcha korxonalar va tashkilotlarda shanba kunini "ashula kuni" sifatida belgilashni taklif etgan edi.

Nimaga korxonalarda, oliygohlarda tanaffuslarda maqom ansamblining ashulalarini, Ma'murjon Uzoqovni qo'yib qo'ymaymiz? Biz tashvishlar bilan bo'lib, maqom eshitmay qo'ydik.

Bilasizlarmi, madaniyat bilan yaqin bo'lgan insonning dunyoqarashi madaniyatli bo'ladi. Uning umri uzoq bo'ladi. Har bir katta korxonada ham mana 10 million investitsiya olib kelyapti. Lekin, 10 million investitsiya olib kelganda bitta cholg'u ansambli qilsa bo'ladimi? Bitta maqom ansambli qilsa bo'ladimi? Shanba kuni ashula eshitadigan kun qilib qo'ygin o'sha yerda. Ashula bilan seni ishingda 10 baravar baraka bo'ladi. Madaniyat bilan seni o'sha korxonangda 10 baravar yangi-yangi rejalarga kirishadi. Odamning chehrasida mehr paydo bo'ladi", deb fikr yuritgan muhtaram Prezidentimiz.

2022-yil 2-fevral kuni prezident Shavkat Mirziyoev "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorini qabul qildi.

Qarorda belgilanishicha, 2022-2023-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarida:

- o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o'rgatiladi;
- "Musiqqa" fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkaziladi;

- milliy cholgʻulardan kamida bittasida, 2023-2024 oʻquv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega boʻlish “Musika” fani oʻqituvchilari uchun majburiy hisoblanadi.

Yurtimizda madaniyat va sanʼat sohasining yanada jadal rivoji, uning jamiyat hayotidagi oʻrni va taʼsiri, sohaning ravnaq topishida yaratilayotgan shart-sharoitlar, taʼlim-tarbiya jarayonida musiqa sanʼatining oʻrni va ahamiyati shuningdek mumtoz musiqamiz rivoji xususida soʻz yuritar ekanmiz, mumtoz musiqamizga boʻlgan qiziqishlarning ortishi, kelajak avlodga milliy musiqiy meroslarimizni sifatli darajada yetkazish asosiy maqsadimiz ekanligini doim yodda saqlashimiz lozim.